

## MALAY TILIDA SIFATLARNING QO'LLANILISHI VA O'ZBEK TILI GRAMMATIKASI BILAN FARQLI VA O'XSHASHLIK JIHATLARI

Akramova Sarvinoz Abduvohid qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish (malay-ingliz) guruhi 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12762671>

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada malay tili grammatikasida sifat va uning turlari qo'llanilishi, gapdagi o'rni yaqqol yoritilib, qilingan tahlillar asosida o'zbek tili grammatikasi bilan o'xshashlik va farqli jihatlari haqida fikr va tahlillar orqali bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** malay tili, o'zbek tili, sifatning turlari, grammatika, qo'shimchalar, asos, shakl.

## УПОТРЕБЛЕНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В МАЛАЙСКОМ ЯЗЫКЕ И РАЗЛИЧИЯ И СХОДСТВА С ГРАММАТИКОЙ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

**Аннотация.** В данной научной статье объясняется в грамматике малайского языка используются типы прилагательных, четко поясняется их место в предложении, а на основе полученных данных посредством мнений и анализов поясняются сходства и различия с грамматикой узбекского языка.

**Ключевые слова:** малайский язык, узбекский язык, типы прилагательных, наречия, основа, форма.

## THE USE OF ADJECTIVES IN THE MALAY LANGUAGE AND THE DIFFERENCES AND SIMILARITIES WITH THE GRAMMAR OF THE UZBEK LANGUAGE

**Abstract.** In this scientific article describes the types of adjective that uses in the grammar of the malay language, their place in the sentence is clearly explained, and based on the findings, similarities and differences with the grammar of the uzбек language are explained through opinions and analyzes.

**Key words:** malay language, uzбек language, types of adjective, grammar, adverbs, base, form.

### KIRISH

Morfologiya bu so'zlarni shakllarini o'rganadigan fan bo'lib, undagi har bir so'z ma'no yoki grammatik xususiyatga ega va u eng kichik til birligi bo'lgan morfemalardan tashkil topgan. Malay tili grammatikasining boshqa tillardan farqi shundaki, bog'langan morfemalardan (masalan, old qo'shimchalar, o'rta va oxir qo'shimchalardan). Shunday qilib, malay tili morfologik tahlili

ikkilamchi xarakterga ega bo'lib, erkin morfemalarni yanada kichik va ma'noli birliklarga, ya'ni malay tilidagi bo'g'inlarga ajratish orqali birlamchi darajadagi tahlil bilan to'ldirilishni o'rgandi. Grammatika (*tatabahasa*) yoki boshqacha qilib aytadigan bo'lsak (*nahv*) (arab tilidan o'zlashgan so'z bo'lib: النَّحْوُ, lotin yozuvi: *an-nahw*) biror-bir tilni qo'llash qoidalarini tartibga soluvchi tizim yoki tuzuvchi (ya'ni, *tatabahasa*) grammatika usullarini o'rganadigan sohadir. Ushbu soha ham tilni o'rganadigan sohalar qatoriga kiradi, ya'ni tilshunoslikning bir asosiy qismidir.

Umumiy olganda, malay tilining grammatikasi (*tatabahasa*) ikki guruhga bo'linadi, bular:

a) **Morfologiya:** so'zlar va so'z shakllarini, so'zning guruhlariga bo'linishi va qo'shimchalar haqida o'rganadigan sohadir.

b) **Sintaksis:** gap tuzilishi haqida tadqiqot.

Grammatika bu so'zlarning qanday shakllanishi, so'zlarning boshqa so'zlar bilan birlashib grammatik jihatdan to'g'ri gaplarni hosil qilish qoidalari o'rganadi. Ushbu ilmiy maqolada, morfologiya turiga kiruvchi sifat so'z turkumi va uning turlari haqida so'z olib boriladi. Sifatlar malay tili grammatikasida alohida so'z turkumini ifodalaydi va ular gapning hamda so'zlarning tasvirni yanada batafsilroq ochib berishga hizmat qiladi. Sifatlardan foydalanish orqali o'quvchilar o'z fikrlarini aniqroq, yaxshiroq va yanada ravshanroq ifodalashlari mumkin, bu esa o'quvchilarga o'z xayollarida tasavvur qila olishga yordam beradi. Sifat so'zlarning nomi yoki fe'ldagi hollarning xususiyatlarini ifodalab beradi. So'zlarining olidan "juda", "haqiqatda", "nihoyatta", "eng", "bir oz", kabi so'zlar kelsa undan keyi keladigan so'zlar aniq sifat so'z turkumiga oid so'zlardir. Sifatlar so'zlarning belgisini, rang-tusini, hajmini, shakl-ko'rinishini va xususiyatini chuqur talqinda o'rganadigan so'z turkumidir.

### MUHOKAMA VA TAHLILLAR

Malay tili grammatikasida sifatlarning o'ziga xos xususiyatlari va ko'rinishlari mavjud va har bir shakl o'ziga xos xususiyat va sifatga egadir. Malay tili sifatlari "kata sifat" nomi bilan kelib gapda so'zlarning sifati, belgi—xususiyatlarini ifodalaydi. Malay tilida sifatlarning darjalari ham mavjud bular:

a) **oddiy daraja** - hech qanday qo'shimcha yoki yordamchi so'zsiz keladigan sifatlari: katta "*besar*", kichik "*kecil*", chiroyli "*cantik*".

b) **qiyosiy daraja**- qiyosiy daraja doim ikki narsa o'rtasida qiyoslab kelgani uchun "*lebih*" o'zbek tilida "-roq" qo'shimcha so'zi bilan birga keladi: kattaroq "*lebih besar*", kichikroq "*lebih kecil*", chiroyliroq "*lebih cantik*".

c) **orttirma daraja-** orttirma daraja doim sifatlarning eng yuqori sifatini yoki darjasini ifodalaydi ular yoki qo'shimchal yoki so'zlar yordamida ham orttirilishi mumkin, bular: “*ter-*”, “*se-*”, “*amat*”, “*paling*”, “*sangat*”, “*sekali*”, “*sungguh*”, “*nian*”, “*terlalu*” kabi orttirma nisbat yasovchi qo'shimchlardir.

#### **SIFATLARNING TURLARI:**

Malay tili grammatikasida sifatning ma'nosiga ko'ra to'qqizta turi mavjud, bular:

- a) *bentuk* -shakl
- b) *cara*-usul
- c) *perasaan*-hissiyot
- d) *keadaan*-holat
- e) *ukuran*-hajm
- f) *warna*-rang
- g) *waktu*-vaqt
- h) *jarak*-masofa
- i) *pancaindera*-hislar

Har bir sifat turi o'z ma'no va xususiyatiga ega, bular:

a) **Bentuk- “shakl”**, shaklni ifodalab keladigan sifatlar, masalan: “*bujur*” (tuxumsimon), “*bulat*” (dumaloq), “*bundar*” (aylanasimon), “*leper*” (yassi).

Batu *bulat* selalu bantu untuk menang dalam sesuatu permainan.

Yumaloq tosh doim biror-bir o'yinda yutishga yordam beradi.

b) **Cara- “usul”**, usulni ifodalab keladigan sifatlar, masalan: “*cepat*” (tez), “*selalu*” (har doim), “*laju*” (juda tez), “*perlahan*” (asta-sekin).

Keretapi *cepat* sangat sesuai bagi kami untuk sampai ke Kuala Lumpur.

Tezyurar poyezd bizni Kuala Lumpurga yetib borishimiz uchun juda qulay.

c) **Perasaan- “hissiyot”**, hissiyotni ifodalovchi sifatlar, masalan: “*benci*” (nafrat), “*kasih*” (sevinch), “*rindu*” (sog'inch).

Saya amat *rindu* keluarga saya semasa aku di Malaysia.

Men Malayziyada bo'lgan vaqtimda oilamni juda so'gindim.

d) **Keadaan- “holat”**, holatni ifodalab keluvchi sifatlar, masalan: “*baik*” (yaxshi), “*jahat*” (yomon), “*pandai*” (aqilli), “*malu*” (uyalchang).

Kepunyaan kawan *baik* dalam hidup ini sangat penting.

Bu hayotda yaxshi do'sting bo'lishi juda muhim.

e) **Ukuran- “hajm”**, hajmni ifodalab keluvchi sifatlar, masalan: “*besar*” (katta), “*panjang*” (uzun), “*pendek*” (qisqa), “*tinggi*” (uzun).

Sekiranya kita *lemah* dalam pelajaran, kita mestilah berusaha dengan gigih.

Umuman olganda biz fanlardan juda zaifmiz shuning uchun doimiy harakatda bo'lishimiz kerak.

f) **Warna- “rang”**, rangni ifodalovchi sifatlar, bular: “*biru*” (ko'k), “*hijau*” (yashil), “*hitam*” (qora), “*merah*” (qizil).

Sabrina memakai baju berwarna hijau.

Sabrina yashil rangli kiyim kiygan.

g) **Waktu- “vaqt”**, vaqtni ifodalovchi sifatlar, bular: “*awal*” (vohli), “*baru*” (yangi), “*kini*” (ayni damda), “*sekarang*” (hozir).

*Sekarang* saya nak pergi ke kedai buku.

Men hozir kitob do'koniga bormoqchiman.

h) **Jarak- “masofa”**, masofani ifodalovchi sifatlar, bular: “*jauh*” (uzoq), “*dekat*” (yaqin), “*hampir*” (deyarli).

Kompleks sukan itu agak jauh dari bandar.

Sport majmuasi shahardan uzoqda joylashgan.

i) **Pancaindera- “hissiyot”**, hissiyotni ifodalab keluvchi sifatlar, ushbu sifatlarning bir qancha turlari mavjud, bular:

“*indera pandangan*” ( ko'rinishni ifodalovchi sifatlar),

“*indera dengar*” (tovushni ifodalovchi sifatlar),

“*indera rasa*” (maza-tamni ifodalovchi sifatlar),

“*indera bau*” (hidni ifodalovchi sifatlar).

1) “*indera pandangan*” ( ko'rinishni ifodalovchi sifatlar) bular: “*buruk*” (hunuk), “*cantik*” (chiroyli), “*kacak*” (kuchli)

Lukisan yang dibeli sungguh *cantik*.

Sotib olingan rasm haqiqatdan ham chiroyli edi.

2) “*indera dengar*” (tovushni ifodalovchi sifatlar) bular: “*merdu*” (yoqimli), “*nyaring*” (baland ovoz).

Sungguh *merdu* suara Sabrina ini.

Sabrinaning ovozi haqiqatdan ham yoqimli.

3) “*indera rasa*” (maza-tamni ifodalovchi sifatlar) bular: “*manis*” (shirin), “*masam*” (nordon), “*pedas*” (achchiq).

Jangan terlalu banyak makan makanan yang *manis*.

Judayam ko'p shirin ovqatlarni yema.

4) “*indera bau*” (hidni ifodalovchi sifatlar), bular: “*harum*” (hushbo’y), “busuk” (chirigan).

Kain ini berbau *harum*.

Bu matodan hushbo’y hid kelayapti.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, sifat soʻz turkumini oʻrganish izlanuvchining narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini oʻrganishga majbur qiladi. Bilamizki boshqa soʻz turkumlariga qaraganda sifat soʻz turkumi barcha tillarda har xil koʻrinishda keladi, baʼzilari oʻzbek tili grammatikasi bilan oʻxshash boʻlsa baʼzilari butunlay farq qiladi. Bu kabi izlanishlar oʻquvchini keng qamrovli fikrlashiga va har xil tillarda solishtirishlar qila olish imkoniyatini beradi. Yuqorida guvoh boʻlib turipmizki, malay tilida grammatikasida qoʻllaniladigan sifatning baʼzilari bizning ona tilimiz bilan oʻxshash va baʼzilari butunlay boshqa soʻz turkumini ifodalaydi. Izlanishlar natijasida shuni koʻrsatdiki ona tilimizda ravish soʻz turkumini vazifasini bajaradigan baʼzi bir xususiyatlar malay tili grammatikasini mutlaqo sifatni ifodalaydi va uning soʻroqlariga javob boʻladi. Koʻrib turishimiz mumkinki malay tilida sifatning qamrovi juda keng va ular bazi hollarda ravishni ham ifodalab kelishadi, ularni farqlab olish esa biroz qiyinchilik olib keladi chunki bunda aniq bir qoida yoki qolib yoʻq boʻlib ularni faqat gapdagi oʻrni va belgisiga qarab farqlab olish mumkin.

### **REFERENCES**

1. Abdullah Hassan. (1993). *Tatabahasa Pedagogi Bahasa Melayu*. Kuala Lumpur: Utusan Publications & Distributors Sdn.Bhd.
2. Asmah Hj. Omar. (1986). *Nahu Melayu Mutakhir*. Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka Kementerian Pelajaran Malaysia.
3. Liaw Yock Fang & Abdullah Hassan. (1995). *Nahu Melayu Moden*. Selangor Darul Ehsan: Fajar Bakti Sdn.Bhd.
4. Nik Safiah Karim, Farid M. Onn, Hashim Haji Musa & Abdul Hamid Mahmood. (2024). *Tatabahasa Dewan*. Selangor Darul Ehsan: Global Smart Printings Sdn. Bhd.
5. Raminah Hj Sabran, Nawī Ismail & Zulkarnain Farihun Abdullah. (2020). *Pemantapan Pemahaman Tatabahasa Bahasa Melayu*. Selangor. Mutiara Suria Ilmu Resources.